

**KADRLARNI MALAKASNI OSHIRISHDA FASILITATORNING O‘RNI”**

(Bojxona instituti Qayta tayyorlash fakulteti misolida)

*Alisher Abduraimovich Uzoqov - katta o‘qituvchi*

*O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti, Toshkent sh. Toshkent, O‘zbekiston*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Bojxona instituti Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakultetida tashkil etilayotgan malaka oshirish kurslarida tahsil oladigan tinglovchilarga bilim berish sifatini oshirishda fasilitator tomonidan amalga oshiriladiga vazifalar masalalari ochib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** Bojxona instituti, pedagog, andragog, fasilitator, malaka oshirish

Bojxona tizimi haqida yetarli tushunchaga ega bo‘lmagan shaxslar (ko‘pchilikni tashkil etadi), uning faoliyati faqat birgina yo‘nalishdan iborat degan tasavvurda bo‘ladilar. Biroq, bojxona tizimida bir-biridan farq qiluvchi bir qator yo‘nalishlar mavjud. Xususan:

- bojxona nazoratini tashkil etish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish;
- bojxona ekspertizasini o‘tkazish;
- tezkor qidiruv faoliyatini olib borish;
- kontrabandaga qarshi kurashish;
- surishtiruv va tekshiruv ishlarini o‘tkazish;
- bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini axborot kommunikatsiya texnologiyalarining oxirgi yutuqlari asosida, avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshirish;
- bojxona nazoratini maxsus rentgent vositalari yordamida, shu jumladan avtomatlashtirilgan tarzda o‘tkazish.

Bojxona postlarida xizmat qilayotgan har bir xodim tomonidan xizmatni olib borish jarayonida yuqorida keltirilgan yo‘nalishlarning bir qanchasi qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida bojxona organlari uchun kadrlarni bazaviy va amaliy professional tayyorlash borasida, ta‘lim muddati to‘rt yil bo‘lgan bakalavrlarni va ta‘lim muddati bir yil bo‘lgan magistrnlarni tayyorlovchi Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti (keyingi o‘rinlarda Institut) tashkil etilgan [1].

Ularga Institutning umumta‘lim va ixtisoslashtirilgan kafedralarida faoliyat olib boradigan pedagoglar tomonidan bilim va ko‘nikmalar beriladi.

Kundalik hayotda ta‘lim tizimida tahsil oluvchilarga bilim beruvchi shaxslarga nisbatan pedagog tushunchasi qo‘llaniladi. Mazkur tushunchaning kelib chiqish

negiziga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "pedagogika" so'zi qadimgi yunonchadan kirib kelgan bo'lib, "paydos" – "bola" va "agogo" – "yetaklovchi", ya'ni "paydagogos" – "bola yetaklovchi" degan ma'noni anglatadi.

Bojxona organlarida xizmat qilayotgan xodimlarning malakasini oshirib borish uchun Bojxona institutda Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti (keyingi o'rinlarda Fakultet) tashkil etilgan. Fakultetda tashkil etiladigan o'quv kurslariga Bojxona qo'mitasi buyurtmasi asosida xizmat olib borayotgan xodimlar orasidan malakasi oshirilishi lozim bo'lganlari jalb etiladi.

Bojxona institutida kursantlarga bilim beradigan pedagoglardan farqli ravishda, malaka oshirish kurslari tinglovchilariga andragoglar tomonidan bilim beriladi. "Andragogika" (yunonchadan olingan so'z bo'lib, "andros" – "katta yoshli odam", "agogeyn" – "yetaklovchi", "katta yoshli odamni yetaklovchi" ma'nosini anglatadi) kattalarga ta'lim berish jarayonida o'rganuvchi fan hisoblanadi [3]

Fakultetda 2022-2023 o'quv yiliga qadar tashkil etilgan malaka oshirish kurslariga jalb qilingan tinglovchilarning bilim darajasi o'quv kursining dastlabki kunlarida boshlang'ich test orqali aniqlanar edi. O'quv kursi yakunida esa tinglovchilarning olgan bilimlari Bojxona qo'mitasi tomonidan maxsus ishlab chiqilgan "onlayn test" dasturi vositasida aniqlaniladi. Albatta aksariyat hollarda tinglovchilar bilimida o'sish kuzatilsada, ammo kimdadir bu ko'rsatkich yuqori bo'lsa, ayrimlarida sezilar-sezilmas bo'lgan. Shu bilan bir qatorda juda oz tinglovchilarning olgan bilimida o'sish kuzatilmagan.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, malaka oshirish o'quv kurslariga jalb qilingan xodimlarning bilim darajasi turlicha bo'lib, ularga andragoglar tomonidan o'tkazilayotgan o'quv mashg'ulotlarda yetkaziladigan ma'lumotlar turlicha qabul qilinib kelingan. Ya'ni, professor-o'qituvchilarga tahsil oladigan tinglovchilarning bilim darajasi ma'lum bo'lmaganligi bois, ular tomonidan auditoriyaga bilim darajasi o'rta bo'lgan tinglovchilar uchun mo'ljallangan mashg'ulot o'tkazilgan. Bu esa auditoriyada o'tirgan tinglovchilarga turlicha ta'sir o'tkazadi: bilim darajasi past bo'lganlar tinglovchilar berilayotgan bilimni yaxshi o'zlashtira olmaydi, bilim darajasi o'rtacha bo'lgan tinglovchilar yaxshi o'zlashtiradi, bilim darajasi yuqori bo'lgan tinglovchilar esa bu bilimga ega ekanligi sababli darsdan zerikadi va darsga turlicha usullarda xalal berishi (masalan, noo'rin savollar berish) mumkin. Andragog tomonidan auditoriyaga bilim darajasi yuqori bo'lgan tinglovchilar uchun mo'ljallangan mashg'ulot o'tkazilganda esa, bilim darajasi past va o'rta bo'lgan tinglovchilar tomonidan o'zlashtirish keskin pasayib ketadi. Bu holatlar esa, tinglovchilar tomonidan o'quv kursi yakuni bo'yicha o'quv kursidan norozilik kayfiyati vujudga kelishiga olib keladi.

Shu sababdan 2022-2023 o'quv yilida tashkil etiladigan o'quv kurslariga bilim darajasi bir xil bo'lgan xodimlarni jalb qilish maqsadida, Bojxona qo'mitasi tomonidan

xodimlarning bilim darajasini aniqlashga yoʻnaltirilgan testlar ishlab chiqildi. Ushbu testlarni yechish natijasida bojxona xodimlari qoniqarsiz, qoniqarli, yaxshi va aʼlo baholar olib, toifalarga ajratildi.

Bojxona qoʻmitasining buyurtmasiga asosan birinchi navbatda testdan qoniqarsiz baho olgan xodimlar oʻqitilgan boʻlib, ularga andragoglar tomonidan oʻquv mashgʻulotlari mos ravishda soddaroq shaklda oʻtkazildi. Natijada, oʻquv kursi soʻngida oʻtkazilgan yakuniy nazoratda tinglovchilar tomonidan testlardan muvaffaqiyatli oʻtib, aksariyat tinglovchilar tomonidan yuqori oʻzlashtirish darajasiga erishildi. Keyingi navbatda toifalash boʻyicha testdan qoniqarli baholangan xodimlarga oʻquv kurslarga jalb qilingan boʻlib, ularga oʻquv mashgʻulotlari biroz chuqurlashgan tartibda oʻtkazildi. Toifalash boʻyicha testdan yaxshi baho olgan xodimlar oʻquv kurslariga jalb qilingan holda ularga oʻquv mashgʻulotlar yanada chuqurlashtirilgan holda oʻtkazilishi, toifalash testida aʼlo baholangan xodimlar esa oʻquv kursiga jalb etilmasligi rejalashtirilgan.

Malaka oshirish kursida berilayotgan bilim tinglovchilar tomonidan yaxshi oʻzlashtirilishi uchun, andragoglar tomonidan ularning barchasini oʻquv jarayonida faol ishtirok etishga erishish lozim. Bunday andragoglar fasilitator deb nomlanadi.

“Fasilitator” (ingliz: facilitator) soʻzi “osontashtiruvchi” yoki “vositachi” maʼnosini anglatadi. Fasilitator oʻquv mashgʻulotini rejalashtiradi va olib boradi, shuningdek quyidagilarga erishish uchun mashgʻulotni boshqaradi:

oʻquv mashgʻulotining maqsadlariga samarali erishish;

har bir ishtirokchi tomonidan mashgʻulotda koʻrilayotgan masalani aniq tushunishiga erishi;

oʻrganilayotgan masala yuzasidan baxs-munozarada barchaning faol qatnashishi;

har bir tinglovchining oʻz fikrlarini bildirishi [2].

Tinglovchilar oʻrtasida samarali vositachi boʻlish uchun fasilitator xolis boʻlishi lozim. Bu ushbu jamoaviy jarayonda shunchaki betaraf boʻlishlikni anglatadi. U oʻquv mashgʻuloti mazmuni tafsilotlaridan va shaxsiy qarashlaridan bir qadam ortga chekinishi va jamoaviy jarayonining oʻziga eʼtibor qaratishi lozim.

Fasilitator oʻquv jarayonida tinglovchilarga mavzuni eʼlon qilishi va mavzu doirasida amaliyotda yoʻl qoʻyilayotgan xatoliklar, vujudga kelayotgan muammolarga doir masalalarni jamoa muhokamasiga taqdim etadi va vositachi sifatida tinglovchilardan ularning fikrlarini soʻraydi. Imkon qadar koʻproq fikrlarni tinglab, tinglovchilarni mavzudagi har bir masalaga toʻgʻri baho berishlari va amaliy yechim topishlariga yoʻnaltiradi.

Tinglovchilarni yangi masalalar bilan qiziqtirish uchun fasilitator tomonidan amaliyotda vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, bojxona rasmiylashtiruviga doir aniqlangan yangi xatoliklarni toʻplashi va tahlil qilib borishi lozim. Buning uchun

фасилитатор malaka oshirish kursi tashkil etilishidan avval kursga jalb etiladigan tinglovchilar haqida imkon qadar ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishi lozim.

Bayon etilganlardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki malaka oshirish kursiga jalb qilinayotgan xodim malaka oshirish kursida samarali malaka oshirishi uchun ushbu xodim xizmat qilayotgan boshqarma tomonidan:

- xodimning xizmat faoliyati bojxona ishining qaysi yo‘nalishiga oid ekanligi;
- xodimning o‘z xizmati davomida tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilishi uchun yetishmayotgan bilim va ko‘nikmalari sohasi;
- yo‘l qo‘yilgan xatoliklar;
- xodim tomonidan o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan yangi yo‘nalishlar;
- amaliyotdagi mavjud muammolar va shu kabilar to‘g‘risidagi ma’lumotni o‘quv kursini tashkil etuvchilarga taqdim etishlari maqsadga muvofiq.

### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 2-noyabrdagi PQ-3995-son qarori;

2. Капустина О.Н., Ковальчук Н.А., Штефан Л.Ф. “Андрогогика как основа для обучения взрослой иностранной аудитории” международный научно-исследовательский журнал, выпуск №4 (35), 2015г.. <https://research-journal.org/archive/4-35-2015-may/andragogika-kak-osnova-dlya-obucheniya-vzrosloj-inostranoj-auditorii>;

3. А.Евдокимов. “Роль фасилитатора. Как достичь цели групповой дискуссии?” URL – <https://scrumtrek.ru/blog/soft-skills/5508/facilitator-kto-eto-chto-delaet/>